

# Me'moriy muhitni shakllantirishning landshaft masalalari

Atabek Shuxratovich Xodjayazov  
 otabek22111988@gmail.com  
 Urganch davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda landshaft arxitekturasining shahar arxitektura muhitini shakllantirishdagi o'rni, ahamiyati haqida so'z boradi. Hududlarni landshaft tashkil etishda qo'llaniladigan uslublar hamda landshaft dizayni elementlarining turlari bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** atrof-muhit, landshaft, uslub, rekreatsiya, suv inshootlari, landshaft dizayni, muntazam uslub, manzarali uslub

## Landscape issues of the formation of an architectural environment

Atabek Shuxratovich Xodjayazov  
 otabek22111988@gmail.com  
 Urgench State University

**Abstract:** This thesis deals with the place and significance of landscape architecture in the formation of the architectural environment of the city. Thoughts about the styles and elements of landscape design used in the landscape organization of territories are outlined.

**Keywords:** environment, landscape, style, recreation, water structures, landscape design, regular style, landscape style

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda arxitektura va shaharsozlik sohasida juda katta o'zgarishlar kuzatilayapti. Bular orasida me'moriy muhitlarni landshaft tashkil etish masalalari ham eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Bizning mamlakatimiz hududi quruq issiq iqlimga hos bo'lganligi sababli, ko'kalamzor hududlarning shaharsozlikdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Hozirda mamlakatimiz shaharsozligida aynan shu hududlarni landshaft tashkil etish masalasiga e'tibor ancha kuchayganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, me'moriy muhitlarni shakllantirish deganda biz, albatta, shahar va qishloqlardagi me'moriy inshootlarning atrofini ko'kalamzorlashtirish, ko'chalarni, ochiq maydonlar hududlarini landshaft tashkil etishni nazarda tutamiz. Shunday ekan, mana shu hududlarni biz ko'kalamzor qilish, ularni landshaft arxitekturasi va dizayni qonun

qoidalari va tamoyillari asosida shakllantirishni nihoyatda muhim masala sifatida ko‘rmog‘imiz hamda barcha zarur bo‘lgan sa’yi harakatlarni amalga oshirmog‘imiz lozim deb hisoblaymiz.

Mamlakatimizdagi ko‘pgina shaharlarning hududlaridan oqib o‘tuvchi daryolar, kanallar qirg‘oq bo‘yi hududlarini ko‘kalamzorlashtirish, ularni me’moriy-landshaft tashkil etish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilganini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, bu hududlarda aholining rekreatsiyaga, ya’ni qisqa muddatli dam olishga bo‘lgan extiyojini qondirish, ularning sport yoki faol harakatlar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minlashda ham aynan shu kanalbo‘yi hududlarini landshaft tashkil etish nihoyatda muhimdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganda bir qancha sanoat korxonalari o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lgan edi va bu hududlar hozirgi kunga kelib tashlandiq holatda, ko‘rimsiz va umuman foydalanilmay qolayotganidan xabaramiz bor. Mana shunday hududlarni endi renovatsiya qilish, zarur bo‘lgan holatlarda, agar u yerda zararli sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, ularning tuprog‘ini rekultivatsiya qilish kabi masalalarni hisobga olgan holda ushbu hududlarda yaqin kelajakda boshqa turdagи sanoat yoki jamoat binolarini shakllantirib, hududni qayta tashkil etish orqali ushbu hududlarga ikkinchи hayotni baxsh etish masalalari ham dolzarb masala sifatida ko‘tarilmoqda va hozirgi kunda bu sohada bir qancha ijobjiy ishlarning amalga oshirilganini ham kuzatishimiz mumkin.

Mamlakatimiz hududida landshaft arxitekturasi sohasida olib borilayotgan sa’yi-harakatlar ichida ochiq muhitlarni, maydon, yo‘l chetidagi ko‘kalamzor hududlarni shakllantirish masalalariga ham katta e’tibor qaratilayapti. Shu bilan birga, bir qancha me’moriy yodgorliklar atroflari va ularning hududlari ham qaytadan shakllantirilib, ko‘kalamzor muhitning yaratilganiga guvohmiz. Bunday hududlar ko‘pgina tarixiy shaharlarimizda, xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida ko‘zga tashlanadi va bu yerda olib borilgan me’moriy muhitlarni landshaft tashkil etish masalalari nihoyatda maqtovga sazovor deb xisoblaymiz. Shunisi quvonarliki, hozirgi kunda landshaft arxitekturasi sohasida, ayniqsa, o‘simliklarning turli xil chetdan keltirilgan navlarini o‘zimizning mahalliy sharoitga moslashtirgan holda an’anaviy o‘simliklar bilan birgalikda uyg‘un ko‘rinishda hududlarni ko‘kalamzorlashtirishda foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu, albatta, shahar va qishloqlarimizning betakror, jozibador kiyofaga ega bo‘lishini ta’minlash bilan birgalikda aholining dam olishi va erkin harakatlanishi uchun, shaharlar va qishloqlarimizning yanada go‘zal va fayzli bo‘lishini ta’minlash uchun, soya-salqin hududlarni ko‘paytirish uchun xizmat qilmoqda.

Ko‘kalamzorlar yo‘l va ko‘chalarni bezash, hududga soya salqinlik berib, mikroiqlimni yaxshilash uchun xizmat qiladi. Shaharning estetik jihatdan go‘zal

bo‘lishida ham yaxshi tashkil etilgan ko‘kalamzorlashtirish tizimining o‘rni beqiyosdir [1].

Nafaqat mamlakatimiz hududida,balki, butun dunyo miqyosida ko‘kalamzorlarning axamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Chunki global isishning butun dunyodagi umumiy ob-havoga, iqlimga ta’siri sezilarli darajada ortib borayotgan hozirgi davrimizda ko‘kalamzorlarning va, umuman, landshaft arxitekturasi va dizayni masalalarining nihoyatda dolzarbliligin e’tirof etish to‘g‘ri bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Hozirgi kunda mamlakatimiz hududida ham rekreatsiya hududlarini shakllantirish bo‘yicha juda katta ishlar olib borilayapti va bu ishlar orasida diqqatga sazovor xolatlar sifatida kanalbo‘yi hududlarini landshaft tashkil etish,renovatsiya qilinayotgan sanoat hududlarini ko‘kalamzorlashtirish va ularning hududlarini rekultivatsiya qilish, shu bilan birgalikda ko‘pgina shaharlarning ochiq maydonlarini, ko‘cha-yo‘l landshaft dizaynni tashkil etish masalalariga ham endi tubdan yangicha yondoshuv kuzatilayotganini e’tirof etishimiz lozim bo‘ladi. Hozirgi kunda mamlakatimizning bir qancha Oliy o‘quv yurtlarida landshaft sohasi bo‘yicha mutaxassislarning tayyorlanayotgani ushbu sohada kundan kunga yaxshi innovatsion yechimlar paydo bo‘lishiga turtki bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda ko‘pgina chet mamlakatlarning tajribasini o‘zimizning mahalliy an’anaviy landshaft tashkil etish masalalari bilan uyg‘un xolda olib borilishini kuzatayapmiz va bu nihoyatda quvonarli natijalarni bermoqda. Masalan, ilgari o‘zimizning hududimizda yetishtiriladigan ko‘pgina daraxtlar, butalar, gullar, yer yopma o‘simpliklarning ma’lum bir assortimenti bilan birgalikda hozirgi kunda chet mamlakatlardan keltirilib, mamlakatimiz tabiiy-iqlimi sharoitiga moslashtirilgan ko‘plab daraxtlar, gullar va butalarning navlarining qo‘llanishi mamlakatimizda landshaft arxitekturasini shakllantirishda shahar va qishloqlarimizning yanada jozibador ko‘rinishga ega bo‘lishini ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda.

Dam olish va bo‘sh vaqtini o‘tkazish hududlarini har tomonlama o‘ylab tashkil etish aholi guruhlari orasida muloqot qilish va axborot almashish uchun sharoitlar yaratadi, jamiyat fuqarolarini jipslashtiradi.

Rekreatsiya hududlarni tashkil etish uchun eng qulay tabiiy sharoitga ega hududlar-daryo yoki sun’iy yaratilgan suv havzalarining bo‘ylari, ko‘kalamzorlar, bog‘lar, parklar hududi, maydonlar, xiyobonlar, bulvarlar, piyodalar yuradigan ko‘chalar va boshqalarni landshaft tashkil etish masalalarini to‘g‘ri hal qilish hozirgi kunning muhim masalasi hisoblanadi.

Maydonlar va piyodalar harakatlanadigan hududlar ham kunduzi,ham kechqurun foydalanish uchun qulay qilib shakllantirilmog‘i lozim. Ushbu hududlarda turli xil ommaviy sayllar, madaniy va sport tadbirlarini o‘tkazish, aholining soya-salqin muhitda qisqa muddatli hordiq chiqarish imkoniyati yaratish zarur.



1.Sevastopol.



2.Muntazam bog‘.



3.Fransiyadagi park.

Manzarali bog‘.

Sayr qiladigan hududlarning landshaft tashkil etilishida atrofdagi qurilishning me'moriy stilistikasi hisobga olinishi kerak, u loyihalanayotgan landshaft muhit stilistikasiga mos bo'lishi kerak. Bunday sharoitda landshaft kompozitsiyasi muntazam, manzarali yoki aralash ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin.

Landshaft muhitini muntazam usulda tashkil etishda, asosan maydonlarning ochiq fazolarida joylashtiriladigan to'g'ri to'rtburchak, diagonal, dumaloq, oval va boshqa shakldagi yo'laklar, o'tloqlar, gulpushtalar, rabatkalarga ko'proq ahamiyat qaratiladi.

Egri-bugri (ilon izi) shakldagi yo'laklar ko'pincha erkin yoki manzarali usulda rejalahtiriladigan rekreatsion hududlarda qo'laniladi.

Manzarali xiyobon va yo'laklar, piyodalar maydonlarini bog‘-park majmuasi va sohil bo'yli hududlari bilan bog‘lash mumkin.



4.Maydonlarda joylashgan zamonaviy suvli qurilmalar va fontanlar

Shunday qilib, jamoat binolari va inshootlari oldida barpo qilinadigan gulzorlar o'lchamlari, shakli va sur'ati bo'yicha bino me'morchiligi bilan uyg'unlashishi kerak, gulzor caloriti binoning rangi bilan bog‘lanishi kerak.

Suvli qurilmalar markazdagi maydonlarni landshaft tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Suv qurilmalari issiq va quruq iqlimda muhitni namlash uchun juda yaxshi natija beradi.

Piyodalar harakati hududlarida va qurilishga yaqin hududlarda ochiq va soyali fazolarning navbatma-navbat kelishi havo massalarining vertikal konveksiyasini yaxshilaydi va hududni hamda piyodalarni yoz vaqtлari ortiqcha quyosh radiatsiyasidan himoya qilishga imkon beradi.

Radiatsion rejimni tartibga solish nuqtai-nazaridan daraxtlarning turlarini to‘g‘ri tanlash va maqsadga muvofiq joylashtirish juda muhim ahamiyatga ega. Sanitariya-himoya hududlarni landshaft tashkil etish usullari ko‘kalamzorlashtirish hududi kengligiga va o‘simpliklarni hajmiy-fazoviy tashkil etishga bog‘liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sadikova M.A., Talipov M.A. Shahar landshaftini tashkil qilish. O`quv qo`llanma, Toshkent -2014, 61-b.